

**O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. San.51.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI

MUXTOROVA MUHAYYO SAIDMUROT QIZI

O‘ZBEK BADIY KINOSIDA KOMEDIYA JANRI

17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on art sciences**

Muxtorova Muhayyo Saidmurot qizi

O‘zbek badiiy kinosida komediya janri.....3

Мухторова Мухайё Саидмурот кизи

Комедийный жанр в узбекском игровом кино21

Mukhtorova Mukhayyo Saidmurot qizi

Comedy genre in Uzbek feature films40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**O‘zR FA SAN‘ATSHUNOSLIK INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. San.51.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘zR FA SAN‘ATSHUNOSLIK INSTITUTI

MUXTOROVA MUHAYYO SAIDMUROT QIZI

O‘ZBEK BADIY KINOSIDA KOMEDIYA JANRI

17.00.03 – Kino san‘ati. Televideniye

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/San144. raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zR FA San‘atshunoslik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fineartins.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Nigora G‘aniyevna
san‘atshunoslik fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Xamidova Marfua Azizovna
san‘atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor

Xaydarova Nigora Toxirjonovna
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Davlat xoreografiya va milliy raqs Akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.San.51.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (99871) 2394667, faks: (99871) 2391771. e-mail: siti1928@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zR FA San‘atshunoslik instituti kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (99871) 2394667, faks: (99871) 2391771. e-mail: siti1928@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____dagi reyestr bayonnomasi).

A.A.Hakimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi,
O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi

A.X.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

I.A.Muxtarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yuz berayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari san'at va madaniyatning barcha turlari qatori kinematografiyaning badiiy-estetik xususiyatlari rivojiga ham keskin ta'sir ko'rsatmoqda. Filmlarda tomoshaboplikka erishish maqsadi ortidan janrlar transformatsiyasi va qorishuvi yuzaga kelayotgani kuzatilmoqda. Shu jihatdan kino san'atining ma'naviy-axloqiy xususiyatlari, ijtimoiy funksiyalari va janriy yaxlitligini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Jahon kinoshunosligida janrlar tizimini anglashga, jamiyatdagi ijtimoiy va umuminsoniy muammolarni tadqiq etishda, kinojanrlar va ularning badiiy, g'oyaviy jihatlarining o'zaro mujassamligini idrok etishga qaratilgan tadqiqotlar ustuvorlik qilmoqda. Tadqiqotlarda kino san'atining eng muhim janrlaridan bo'lgan komediyaning jamiyat ma'naviy-badiiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil ekaniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Komediya janridagi filmlarning ijtimoiy ong yuksalishidagi o'rni, jahon kinokomediylarining o'zbek komediylariga ta'siri, milliy komediylarning shakllanishida o'zbek aktyorlik maktabining ahamiyati kabi masalalarni tadqiq etish soha mutaxassislarini oldidagi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston kino san'atida komediya janrining rivoji ijodkorlarning mahorati va professional ko'nikmalariga bog'liqligi ayon bo'lib bormoqda. Shu bois, komediya janrining taraqqiyotini belgilashda kinoijodkorlarning individual yondashuvlari va uslublari kesimida tadqiqotlarni amalga oshirish zarur bo'lmoqda. "Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi. Shu nuqtai nazardan, kino sohasi faoliyatiga baho beradigan bo'lsak, bu borada muayyan yutuqlar bilan birga, jiddiy nuqson va kamchiliklar ham yaqqol ko'zga tashlanadi"¹. Ijtimoiy yuki va badiiy saviyasi past, tomoshabinlarning ma'naviy-estetik olamiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kinokomediylarni tanqidiy ko'rib chiqish, janr talablariga javob beradigan badiiy yuksak komediya filmlarini tadqiq etish, uning keyingi rivoji yuzasidan muhim xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi PF-6202-son "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-avgustdagi PQ-3176-son "Milliy kinematografni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan muhim vazifalar ijrosini ta'minlashga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

¹Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (2017-yil 3-avgustdagi mamlakatimiz ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutq) // Xalq so'zi. 2017. 4-avgust.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq keladi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Kino sanʼatida komediya va uning xususiyatlarini oʻrganishda xorijlik olimlardan M.Arell², R.Axmadiyev³, M.Gitis⁴, L.Kerri⁵, A.Rutkovskiy⁶, Ye.Smikova⁷, V.Tuyeva⁸, K.Uayt⁹, R.Yurenev¹⁰, A.Zachariy¹¹ singari mualliflarning ilmiy tadqiqotlari muhim manba boʻlib hisoblanadi.

Oʻzbek badiiy kinosida komediya janri X.Abul-Qosimova¹², X.Akbarov¹³, N.Karimova¹⁴, M.Mirzamuhamedova¹⁵, J.Teshaboyev¹⁶, S.Xaymatova¹⁷ kabi kinoshunos olimlar tomonidan turli mavzu va muammolar doirasida oʻrganilgan.

Shuningdek, oʻzbek teatrshunosligida komediya janrining genezisi va evolyutsiyasi I.Muxtorov¹⁸, M.Qodirov¹⁹, S.Qodirova²⁰, D.Qodirova²¹,

² Arell M. Why are comedy films so critically underrated? – University of Maine, 2012. – p. 326.

³ Axmadiyev Р.Б. Башкирская советская комедия (эволюция жанра). Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Москва. 1984. – 176 с.

⁴ Гитис М.И. Структурные особенности звукового решения фильмов в жанре кинокомедии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – С.-П.: 2013. – 19 с.

⁵ Snyder Kerry L. Genre and Globalization: working title films, the British romantic comedy and the global film market. A dissertation doctor of philosophy. – The University of Exeter, 2011. – p. 431.

⁶ Рутковский А.Г. Принципы и методика жанрового анализа фильма. Диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Москва. 1985. – 218 с.

⁷ Смыкова Е.А. Комическое в массовой культуре советской России. Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ростов -на-дону, 2012. – 161 с.

⁸ Туева В.В. Обновление жанровой традиции в советском кинематографе 30-х – 40-х годов. Диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Москва. 2009. – 161 с.

⁹ White C.B. Misery is the true script for comedy: A study of Italian film comedy in the 1950s. A dissertation doctor of philosophy. – University of California (Los Angeles), 2014. – p. 204.

¹⁰ Юренев Р. Советская кинокомедия. Москва: издательство “Наука”, 1964. – 537 с;

¹¹ Zachary A.S. Film comedy and the American dream. A dissertation doctor of philosophy. – Bowling Green State University, 2016. – p 256.

¹² Abul-Qosimova X. Kinotelradio tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 87 b;

Абулкасымова Х., Акбаров Х., Костяркин О. Актеры и роли. – Ташкент: издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1976. – 163 с.

Абулкасымова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. Ташкент: издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1985. – 286 с.

¹³ Akbarov H. Ekran ziyati. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978. – 48 b.

Akbarov H. Zohid Sobitov. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980. – 130 b.

Akbarov H. Nabi Gʻaniyev. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1983. – 160 b.

Akbarov H. Latif Fayziyev. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985. – 133 b.

¹⁴ Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Тошкент: Sanʼat, 2016. – 215 с.

Каримова Н. Киноиндустрия Узбекистана и её вклад в социально-экономическое развитие страны. Unesco – Baktria press, 2019. – 88 с.

¹⁵ Mirzamuhamedova M. Oʻzbekistonda bolalar kinosi. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976. – 96 b.

¹⁶ Тешабаев Д. Мастера узбекского кино. Qoʻlyozma. Sanʼatshunoslik instituti kutubxonasi.K(M), T – 38, № 240.

¹⁷ Хайтматова С. Становление и развитие телевизионного художественного кино в Узбекистане: диссертация кандидата искусствоведения. – Ленинград, 1987. – 173 с.

¹⁸ Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1988. – 176 с.

M.Rahmonov²², M.To‘laxo‘jayeveva²³, M.Xamidova²⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, dissertatsiya ishiga muhim nazariy asos sifatida xizmat qildi.

O‘zbek kinokomediya sinining turli aspektlari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, komediya mustaqil janr sifatida tadqiq etilmagani, ilmiy muammo sifatida uning bugungi holati va istiqboli masalasi xulosalanmagani joriy ishning yuzaga kelishiga zamin yaratadi va dastlabki yangi ish ekanini anglatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq 702 PZ-20170928517 “O‘zbekiston kinoindustriyasining rivojlanish dinamikasi va badiiy xususiyatlari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi komediya janrining o‘zbek badiiy kinosi rivojida tutgan o‘rnini belgilash hamda o‘zbek kinokomediya sinining o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy-estetik tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

komediya janridagi badiiy filmlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

badiiy filmlarda komediya unsurlarining tadrijiy rivojini ilk tarkib topish bosqichidan to hozirgi davrgacha bo‘lgan janriy transformatsiyalar kesimida tavsiflash;

o‘zbek badiiy kinosida komediya evolyutsiyasini yaxlit badiiy jarayon sifatida ochib berish;

komediya janridagi filmlarning ustuvor rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

ilk o‘zbek kinokomediya sinining rivojida folklorning muhim manba sifatidagi xususiyatini aniqlash;

kinoteatrlar faoliyatining jadal rivojida komediya janridagi filmlarning o‘rni yuqori ekanligini ko‘rsatish;

o‘zbek kinokomediya sinining zamonaviy muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston badiiy kinosida komediya janr sifatida tarkib topishi, rivojlanish jarayonlari va o‘ziga xos badiiy-uslubiy tendensiyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek badiiy kinosining komediya janridagi filmlari tashkil etadi.

¹⁹ Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 420 b.

Qodirov M. Tomosha san‘ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1993. – 204 b.

²⁰ Qodirova S. Komediya san‘ati tarixi. – Toshkent: San‘at, 2008. – 212 b.

²¹ Qodirova D. XX asr O‘zbek teatri ssenografiyasi. – Toshkent: San‘at, 2009. – 208 b.

²² Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o‘zbek teatri madaniyatining taraqqiyot yo‘llari). – Toshkent: Fan, 1968. – 428 b.

²³ Туляходжаева М. Режиссура Узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). дисс... докт. искуc. наук. – Ташкент. 1996. – 205 с.

²⁴ Хамидова М. Узбекская музыкальная драма: проблема жанра. – Ташкент: издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 2015. – 117 с.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tahliliy, tasnifiy, kuzatuv, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

komediya janridagi filmlarda kuchli badiiy obrazlilik, hozirjavoblik, muammolarni bilvosita aks ettirish xususiyatlari mavjudligi bois, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan;

o‘zbek badiiy kinosining taraqqiyot bosqichlarida komediya janrining evolyutsiyasi va transformatsiyasi natijasida “musiqiy komediya”, “lirik komediya”, “satirik komediya”, “sarguzasht komediya”, “ijtimoiy komediya”, “maishiy komediya” kabi modellari shakllangani asoslangan;

an’anaviy kinokomediya janri takomilidagi evrilishlar, syujet va kompozitsiya qamrovining kengayishi, rejissurada ikkinchi plan personajlariga urg‘uning kuchayishi, boshqa janrlar unsurlari bilan sintezlashuvining ta’siri bois muallif va rejissyorlarning ijodiy individualligi namoyon bo‘lgani asoslangan;

komediya janridagi filmlarda badiiylik moduslari yangilanishi natijasida janrning struktural-semantik xossalari o‘zgarib borganini aniqlangan;

zamonaviy davrda komediya janridagi filmlar o‘tkir ijtimoiylikdan chekinib, folklor-etnografik tomosha hamda maishiy-ko‘ngilochar shakllarida ifodalanayotgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o‘zbek kinosining oltin fondidan joy olgan ko‘plab komediya janridagi filmlarning, ularda rol ijro etgan aktyorlarning, rejissyorlarning keng ommaga ma’lum bo‘lmagan ijro uslubi, ijodiy faoliyati xususida ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniyaning maxsus ko‘rsatuvlarida ilmiy munosabat bildirilib, mazkur xususiyatlar janr rivojiga katta hissa qo‘shgani asoslangan;

komediya janrining taraqqiyotini tadqiq etish natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalardan kino san’atini tadqiq etayotgan kinoshunoslar, kinoda, xususan komediya janrida faoliyat olib borayotgan kinodramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar uchun nazariy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dalillangan materiallarning qiyosiy tahlil etilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, tavsiflash, zamonaviy jarayonlarni kuzatish kabi usullar bilan asoslanganligi, badiiy kinoda komediya janrini tahlil qilishda arxiv manbalari, dramaturgik asarlar, komediya janridagi filmlarning elektron shakllari, ijodkorlar bilan suhbatlarga tayanilgani, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, OAK ro‘yxatidagi milliy hamda xorijiy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishidagi tahliliy ma’lumotlar, ilmiy-nazariy xulosalar san’atshunoslikning metodologik imkoniyatlarini kengaytirishi, respublikadagi san’atga ixtisoslashgan o‘quv yurtlar talabalari uchun maxsus kurslar bo‘yicha o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar, darslik va monografiya yaratish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek kinokomediya sinigining tarixini yaratishda, uzviyligini ta'minlashda, uning uslubiy yondoshuvlarini milliy ekran san'atining boshqa turlariga moslashtirishda, kino asoslari fanini o'qitishda, san'atshunoslik va kinoshunoslik bo'yicha kadrlar tayyorlashda, ekranlashtirilayotgan, suratga olinayotgan filmlarning badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'zbek badiiy kinosida komediya janri" nomli tadqiqot doirasida olingan ilmiy natijalar asosida:

komediya janridagi filmlarda kuchli badiiy obrazlilik, hozirjavoblik, muammolarni bilvosita aks ettirish xususiyatlari mavjudligi bois, jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangani bo'yicha olingan xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Kino tarixidan" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 10-oktyabrdagi 02-32-154-son ma'lumotnomasi). Natijada "Kino tarixidan" ko'rsatuvida ilgari surilgan nazariy fikrlar va keltirilgan ma'lumotlar o'zbek badiiy kinosi tarixini o'rganish, uning shakllanish bosqichidagi asosiy jarayonlar va alohida xususiyatlari haqida keng auditoriyani xabardor qilish imkoniyatini bergan;

o'zbek badiiy kinosining taraqqiyot bosqichlarida komediya janrining evolyutsiyasi va transformatsiyasi natijasida "musiqiy komediya", "lirik komediya", "satirik komediya", "sarguzasht komediya", "ijtimoiy komediya", "maishiy komediya" kabi modellari shakllangani asoslangan xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining "Kinotalqin" hamda "Soyasiz yulduzlar" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali"ning 2023-yil 29-sentyabrdagi 01-02-02/198-son ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalar badiiy kino jarayonlarini jamiyat estetik va ma'naviy taraqqiyotiga yo'naltirish, o'zbek komediya janridagi filmlar rivojini yaxlit o'rganish, filmlarning badiiy hamda g'oyaviy mutanosibligini ta'minlash, badiiy jihatdan mukammal kinossenariylarni saralash, tomoshabinlarning ma'naviy olamini va estetik didini o'stirish imkonini bergan;

zamonaviy davrda komediya janridagi filmlar o'tkir ijtimoiylikdan chekinib, folklor-etnografik tomosha hamda maishiy-ko'ngilochar shakllarida ifodalanayotgani asoslangan taklif va tavsiyalardan Madaniyat vazirligi tomonidan 2023-yil 7-10-sentyabr kunlari o'tkazilgan teatr dramaturgiyasi va kinossenariylarni yanada rivojlantirishga qaratilgan yosh ijodkorlarning "Nigoh" ijodiy seminari muhokamalarida hamda mahorat darslarini tashkil etishda keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 02-11-18/02-3146-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston kino san'atida komediya janrining rivoji ijodkorlarning mahorati va professional ko'nikmalariga bog'liqligi, bu jarayonda komediya janri taraqqiyotini belgilashda kinoijodkorlarning individual yondoshuvlari hamda qarashlari, madaniyat sohasida, yoshlarni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etildi, aprobatsiyadan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola (4 tasi respublika, 5 tasi xorijiy) chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan tarkib topib, umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari belgilanib, obyekt va predmeti tavsiflangan, muammoning o‘rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyadan o‘tkazilganligi va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kinokomediyaning janr xususiyatlari, tarixiy-nazariy aspektlari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, kinokomediyaning shakllanish va rivojlanish jarayonlarida ijodiy o‘zgaruv, janrning turlanishi, ijodkorlarning ijro, tasvir, rejissyorlik mahorati eng ahamiyatli filmlar tahlili orqali tadqiq qilingan. **“Komediya janrining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bo‘limda janrning xususiyatlari, turlari, komediya janrining ilk shakllaridan to bugungi kunga qadar jahon kinoshunosligida tutgan o‘rni, shakllanish va rivojlanish jarayonlari, badiiy xususiyatlari, komediya janridagi filmlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar o‘z aksini topgan. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib AQSH madaniyatshunosligida ilk bora “janrlar formula”si deb nomlangan ilmiy masala o‘rtaga tashlandi. Masalan, J.Kavelti 1977-yilda chop etilgan “Sarguzashtlar, sir va muhabbat tarixi: formulali hikoyalar san’at va ommaviy madaniyat sifatida”²⁵ kitobida “janrlar formulasi” haqida batafsil keltirib o‘tadi. Kavelti ommabop adabiyotdagi strukturaviy chizgilarni, o‘ziga xos xususiyatini aniqladi va ularni umumlashtirgan holda “formulalar” deb atadi. Kavelti olg‘a surgan asosiy fikr shundan iboratki, har bir “janr formulasi” – “janr” tushunchasidan ancha keng bo‘lib, o‘z tarkibiga bir necha klassik janrlarni qamrab oladi. Ya’ni, janrlar qorishig‘idan iboratdir, degan nazariyani olg‘a suradi. Darhaqiqat, “Komediya murakkab janr turi sanaladi. Shuning uchun komediya janri haqida emas, balki har biri o‘ziga xos estetik ohang, maxsus janr mazmuni va shakliga ega bo‘lgan komediya janrlari haqida so‘z yuritish to‘g‘riroq”, – deydi

²⁵ Cawelti J. Adventure, mystery, and romance: formula stories as art and popular culture. – Chicago: University of Chicago press, 1977. – p. 344.

R.Yurenev bu borada o'zining "Sovet kinokomediyasi" kitobida. U "Komediya allaqachon kichik janrlarga bo'linib, ko'payib yagona bitta janr bo'lishdan to'xtadi. Komediyaning endi janr emas, san'at turi yoki sohasi deb atash to'g'ri bo'lardi"²⁶, – degan fikrlarni ilg'a surdi.

I.Pal komediya janrining xususiyatlariga baho berar ekan, "Kulgililik komediya bilan farqli tushunchalar. Aytish mumkinki, hamma kulgili narsalar komediya bo'lavermaydi. Ammo hamma komediya kulgili bo'la oladi"²⁷, – deb izoh beradi. Bu borada R.Yurenev ham "Kulgililik komediyadan keng tushuncha. Ammo komediya kulgililikdan chuqurroq tushuncha. Kulgililik psixologik kategoriya, komediya esa fojeilik, go'zallik va ulug'vorlik bilan bir qatorda estetik kategoriya sanaladi. Kulgililik tarbiyaviy funksiyalarga ega emas, komediya esa ega. Kulgililik ijtimoiy ma'noga ega bo'lmasligi mumkin, ammo komediya har doim ijtimoiy mazmun kasb etadi"²⁸, – degan fikrlar bilan komediyaga yuqori baho berib o'tadi.

Shuningdek, jahonda komediya janrining shakllanish va rivojlanish jarayoni, uning asoschilari, ijodkorlar faoliyati va badiiy xususiyatlari M.Arell²⁹, R.Axmadiyev³⁰, M.Gitis³¹, L.Kerri³², A.Rutkovskiy³³, Ye.Smikova³⁴, V.Tuyeva³⁵, K.Uayt³⁶, R.Yurenev³⁷, A.Zachariy³⁸ kabi olimlar tomonidan o'rganilib, janrning muhim jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, kinokomediyaning xususiyatlari – personajlarning o'ziga xosligi, holat va xarakter xususiyatlari, zamonaviy obraz yaratish, kinokomediyaning boshqa san'at turlari bilan uzviy bog'lanishi, komediyaning turlari, zamonaviy komediyaning rivojlanish muammolari, komediya janri rivojida kompyuter texnologiyalarining ifoda imkoniyatlari, komediya elementlaridan iborat syujetlar, qisqa va to'liq metrajli komediya janridagi filmlarning badiiy xususiyatlari turli tadqiqot ishlarining alohida obyekt sifatida o'rganilgan. Ya'ni, xorijlik olimlar tomonidan kinokomediyaning tarixi, nazariyasi va amaliy xususiyatlari atroflicha o'rganilgan.

²⁶ Юренив Р. Советская кинокомедия. – Москва: издательство "Наука", 1964. – 21 с.

²⁷ Пал И. О жанре. – Москва: издательство "Московская правда", 1962. – 94 с.

²⁸ Юренив Р. Советская кинокомедия. Москва: издательство "Наука", 1964. – 10 с.

²⁹ Arell M. Why are comedy films so critically underrated? – University of Maine, 2012. – p. 326.

³⁰ Ахмадиев Р.Б. Башкирская советская комедия (эволюция жанра). Диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Москва. 1984. – 176 с.

³¹ Гитис М.И. Структурные особенности звукового решения фильмов в жанре кинокомедии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – С.-П.: 2013. – 19 с.

³² Snyder Kerry L. Genre and Globalization: Working title films, the British romantic comedy and the global film market. A dissertation doctor of philosophy. – The University of Exeter, 2011. – p. 431.

³³ Рутковский А.Г. Принципы и методика жанрового анализа фильма. Диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Москва. 1985. – 218 с.

³⁴ Смыкова Е.А. Комическое в массовой культуре советской России. Диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Ростов –на-дону, 2012. – 161 с.

³⁵ Туева В.В. Обновление жанровой традиции в советском кинематографе 30-х – 40-х годов. Диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Москва. 2009. – 161 с.

³⁶ White C.B. Misery is the true script for comedy: a study of Italian film comedy in the 1950 s. A dissertation doctor of philosophy. – University of California (Los Angeles), 2014. – p. 204.

³⁷ Юренив Р. Советская кинокомедия. – Москва: издательство "Наука", 1964. – 537 с.

³⁸ Zachary A.S. Film comedy and the American dream. A dissertation doctor of philosophy. – Bowling Green State University, 2016. – p. 256.

O‘zbek badiiy kinosida komediya janri Abul-Qosimova X.³⁹, Akbarov X.⁴⁰, Karimova N.⁴¹, Mirzamuhamedova M.⁴², Teshaboyev J.⁴³, Xaytmatova S.⁴⁴ kabi kinoshunos olimlar tomonidan turli mavzu va muammolar doirasida o‘rganilgan.

Shuningdek, o‘zbek teatrshunosligida komediya janrining genezisi va evolyutsiyasi Muxtorov I.⁴⁵, Rahmonov M.⁴⁶, Qodirov M.⁴⁷, Qodirova S.⁴⁸, Qodirova D.⁴⁹, To‘laxo‘jayeveva M.⁵⁰, Xamidova M.⁵¹ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, dissertatsiya ishiga muhim nazariy asos sifatida xizmat qildi.

O‘zbekistonda kinokomediya hali hanuz yaxlit va atroflicha o‘rganilmagani ushbu janrning o‘zbek kinosidagi shakllanish va rivojlanish bosqichlari, badiiy xususiyatlari, dramaturgiyasi, kinokomediya mualliflari va ijodkorlari ijodi, filmlarning badiiy darajasi va saviyasi, janr xususiyatlari va filmlar tahlili singari qator mavzularda izlanishlar zarurligiga e‘tibor qaratishni talab etadi.

Bobning **“Badiiy kinoda komediya janri: genezisi va badiiyati”** bo‘limida kino paydo bo‘lgunga qadar uning barcha komponentlari, aktyor ijrosi, tasvir, musiqa, rassom ishi kabilarning borligi va badiiy kino sifatida shakllanishida asos bo‘lgan komediya elementlaridan iborat syujetlarning shakllanishi va rivojlanishi bugungi kunga qadar muhim ahamiyat kasb etgan komediya janridagi filmlarning paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Xususan, aka-uka Lyumerlarning “Jiqqa xo‘l sug‘oruvchi” (1895) syujetidan, to A.Did, M.Linder, M.Sennet, keyinroq Ch.Chaplin, B.Kiton kabi aktyorlarning filmlarini xronologik tartibda badiiy tahlil etish orqali nazariy xulosalar chiqarilgan.

³⁹ Abul-Qosimova X. Kinotelaradio tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 87 b.

Абулкасымова Х., Акбаров Х., Костяркин О. Актёры и роли. – Ташкент: издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1976. – 163 с.

Абулкасымова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1985. – 286 с.

⁴⁰ Akbarov H. Ekran ziyati. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978. – 48 b.

Akbarov H. Zohid Sobitov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980. – 130 b.

Akbarov H. Nabi G‘aniyev. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1983. – 160 b.

Akbarov H. Latif Fayziyev. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1985. – 133 b.

⁴¹ Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: San‘at, 2016. – 215 с.

Каримова Н. Киноиндустрия Узбекистана и её вклад в социально-экономическое развитие страны. Unesco – Vaktria press, 2019. – 88 с.

⁴² Mirzamuhamedova M. O‘zbekistonda bolalar kinosi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 96 b.

⁴³ Тешабаев Д. Мастера узбекского кино. Qo‘lyozma. San‘atshunoslik instituti kutubxonasi.K(M), T – 38, № 240.

⁴⁴ Хайтматова С. Становление и развитие телевизионного художественного кино в Узбекистане: диссертация кандидата искусствоведения. – Ленинград, 1987. – 173 с.

⁴⁵ Мухтаров И. Театр и классика. – Ташкент: издательство литературы и искусс. им. Г.Гуляма, 1988. – 176 с.

⁴⁶ Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o‘zbek teatri madaniyatining taraqqiyot yo‘llari). – Toshkent: Fan, 1968. – 428 b.

⁴⁷ Qodirov M. O‘zbek teatri an‘analari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 420 b.

Qodirov M. Tomosha san‘ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1993. – 204 b.

⁴⁸ Qodirova S. Komediya san‘ati tarixi. – Toshkent: San‘at, 2008. – 212 b.

⁴⁹ Qodirova D. XX asr O‘zbek teatri ssenografiyasi. – Toshkent: San‘at, 2009. – 208 b.

⁵⁰ Туляходжаева М. Режиссура Узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы). дисс... докт. искусс. наук. – Ташкент: 1996. – 205 с.

⁵¹ Хамидова М. Узбекская музыкальная драма: проблема жанра. – Ташкент: издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 2015. – 117 с.

Yevropa va AQSH kinematografining dovrug‘ini jahonga yoygan – Andre Did, Maks Linder, Baster Kiton, Charli Chaplinlar ishtirokidagi filmlar syujeti va qahramonlari genezisida ham aynan komediya janri yotadi. Kinoning ovozsiz davridayoq AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiya kinematografiyalarida bo‘y ko‘rsatgan – romantik komediya, dahshatlar komediyasi, eksentrik komediya, tragikomediya, satirik komediya singari komediya janrining unsurlarini kuzatishimiz mumkin. Ovozsiz kino davrida Shvetsiya (M.Stiller, V.Shyostrom, G.Garbo, K.Dreyer), Angliya (A.Xichkok, L.Andersen), Hindiston (D.Gangopadxaya), Rossiya (L.Kuleshov, A.Dovjenko, Ya.Protazanov) kabi mamlakatlarda komediya elementlari bilan boyitilgan, holatlar va xarakterlar komediyasiga qurilgan filmlar rivojlandi. Badiiy jarayonda ko‘plab tajribali aktyorlar, rejissyorlar, operatorlar, rassomlar mahorati mukammallashdi. Filmlarda asosan satirik kulgi yetakchilik qildi.

Keyingi davrda ham kinokomediya shiddat bilan rivojlanib, mavzu, tasvir, rang, obraz, uslub jihatdan o‘zgarib, yangi bosqich boshlanganligi kuzatildi. Xususan, G.Mulander (Shvetsiya), R.Kapur (Hindiston), Z.Davutuglu (Turkiya), R.Taxmasib, V.Titov, F.Aliyev (Ozarbayjon), K.Mikaberidze, V.Tabliashvili, S.Dolidze, G.Shengelaya (Gruziya), R.Perelshteyn, T.Sobirov, A.Hamroyev (Tojikiston), N.Ekk, G.Aleksandrov, Ya.Protazanov, A.Dovjenko, L.Gayday, E.Ryazanov, G.Daneliya (Rossiya) kabi rejissyorlarning turli muammolarni ekranda achchiq kulgu bilan ifodalagan qator filmlari komediyani yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa o‘z navbatida bir qator komediyaviy ampludagi aktyorlarning ekran san‘atida o‘ziga xos obrazlari bilan paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Aynan shu davrda janrlardan qorishiq foydalanish amaliyoti yuzaga keldi. “Komediya janrida, ayniqsa, ovozsiz filmlar davridan keyin, “janr softligi”ning buzilish holati tez-tez kuzatilib, boshqa janr va stilistik modellar bilan sintez shakllari paydo bo‘la boshladi”⁵². Natijada, komediya janri turli mamlakatlarning kino san‘atida turfa tarzda rivojlangan. Milliy va mintaqaviy xususiyatlardan kelib chiqib komediyaning shakllari, tur va yo‘nalishlari, genezisi va badiiyati taraqqiy etdi. Tabiiyki, bu borada teatr hamda sirk aktyor va rejissyorlarining ta’siri katta bo‘ldi. Yevropa va Amerika komediyalari xatti-harakatga qurilgan, tomoshaviyligi kuchli bo‘lsa, Sharq va Sovet mamlakatlaridagi komediyalar ko‘proq xarakter va so‘zga qurilib, badiiylik va tarbiyaviylikka katta e’tibor qaratildi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek kinosida komediya janri shakllanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo‘limdan tashkil topib, unda o‘zbek kino san‘atida komediya janridagi filmlar shakllanishida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, folklor an‘analarning kinoda aks etishi, albatta o‘zlikni anglash, milliy o‘ziga xoslik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi shuningdek, siyosiy mafkurani xalq ongiga singdirishga bo‘lgan urinishlar bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq etilgan. Bobning **“Komediya janridagi filmlarda badiiy obraz va milliy an‘analar munosabati”** bo‘limida o‘zbek kinosining klassik kinokomediyaiga aylangan va janrning

⁵² Д.Журкова, Э.Виолетта. Эстетика советской кинокомедии // Художественная культура. Кино и массмедиа. – Москва: №2. 2022. – 284 с.

shakllanishida o'zining badiiy xususiyatlari, shakli va mohiyati bilan andoza vazifasini bajarib kelayotgan "Nasriddin Buxoroda" (Ya.Protazanov, 1943), "Nasriddinning sarguzashtlari" (N.G'aniyev, 1946), "Yangi yer" (A.Beknazarov, 1954), "Stadionda uchrashamiz" (Z.Sobitov, 1955), "Maftuningman" (Y.A'zamov, 1958), "Mahallada duv-duv gap" (Sh.Abbosov, 1960), "Sinchalak" (L.Fayziyev, 1961), "Yor-yor" (A.Hamroyev, 1964), "Dilbarim" (Yu.Stepchuk, 1967) filmlari badiiy va g'oyaviy jihatdan tahlil etildi.

Mazkur filmlarni tahlil etish natijasida aktyor ijrosi, tasviriy qatlam, dialoglar, musiqa va qo'shiqlar vositasida obraz kayfiyati va syujet ta'sirchanligini oshirish, falsafiy va ramziy ma'noni ifodalash, yumor vositasida mimika, emotsiya va ritmni tasvirlash, voqea va qahramonlar holatini bo'rttirib ko'rsatishdagi o'rni aniqlangan.

O'zbekiston hududida ilk kino namoyishlar Parijdagi dastlabki namoyishlardan atigi ikki yil o'tibgina 1897 yilda amalga oshirilgan, ilk film 1924 yilda suratga olinib, birinchi ovozli kino 1937 yilda ishlangan bo'lsa-da, dastlabki kinokomediya 1943 yilda suratga olindi. Ya.Protazanov tomonidan ishlangan "Nasriddin Buxoroda" filmida xalq folkloriga murojaatning kuchliligi, milliy xarakterlarni berishga intilishni, shu bilan birgalikda, mafkuraviy hamda satirik ruhiyatni sezish mumkin. Shunga qaramay, rejissyorning ushbu filmi o'zbek kinokomediya tarixini boshlab berdi.

Mazkur bo'lim bo'yicha xulosa qilganda badiiy obraz yaratishda milliy qadriyatlarimiz va folklor an'analarimizning ekran asari mazmundorligini oshirishda muhim o'rin tutganligi hamda bu filmning barcha ijodiy komponentlari: rejissyor ishi, aktyor ijrosi, operator mahorati, musiqa kabilarda uslub jihatdan singdirilganligi, bu esa komediya janrida qanday ifoda topganligi tahlilga tortilgan.

"Janr xususiyatlarining syujet va konflikt qurilmasiga ta'siri" bo'limida o'zbek kino san'atida komediya janrini rivojlantirgan, janrning o'ziga xosliklarini, xususiyatlarini yuzaga chiqargan, jamiyatdagi turli muammolarni tomoshabinga kulgu bilan yetkazishda muhim o'rin tutgan "Shum bola" (D.Salimov, 1977), "Ajoyib xayolparast" (R.Botirov, 1977), "To'ylar muborak" (E.Xachaturov, 1978), "Chinor tagidagi duel" (M.Abzalov, 1978), "Suyunchi" (M.Abzalov, 1982), "Kelinlar qo'zg'oloni" (M.Abzalov, 1984), "Maysaraning ishi" (M.Abzalov, 1989), "Temir xotin" (I.Ergashev, 1990) kabi filmlar badiiy va g'oyaviy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur bo'limda tahlil etilgan filmlar orqali komediya janrining o'zbek kinosida qanday tuslanganligi, o'ziga xosliklari, badiiy asarlarning ekranda o'ziga xos joziba kasb etganligi, kinoda komediyaning syujet va konflikt qurilmasiga ta'siri masalasi yuzasidan xulosalar qilingan:

– o'zbek badiiy kinosida komediya janrining vujudga kelishi bevosita rossiyalik rejissyor Ya.Protazanov nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, qahramonlar obrazlarida milliy o'ziga xoslikni shakllantirgan, xalqona koloritni qo'sha olgan ijodkor Nabi G'aniyev bo'ldi;

– O'zbekiston kinosi tarixida Yo'ldosh A'zamov, Latif Fayziyev, Shuhrat Abbosov, Damir Salimov, Ali Hamroyev, Ravil Botirov, Melis Abzalov, Eduard Xachaturov, Isamat Ergashev kabi rejissyorlarning ijodiy faoliyati, izlanishlari tufayli milliy kinokomediyaning o'ziga xos shakli va yo'nalishi vujudga keldi;

– O‘zbekiston kino san‘atida komediya janridagi filmlar avval boshda xalq najotkorlarini aks ettirish, xalqqa umid berish, mehnatkashlarning “yorqin hayoti”ni ifodalash kabi g‘oyalarni komik tarzda o‘zida singdirish bilan boshlangan bo‘lsa-da, keyingi yillarda suratga olingan kinokomediyalarda ko‘tarinki ruhiyat, kelajakka ishonch, har sohada yoshlarning o‘rni, yoshlarning orzu-umidlari musiqiy bezaklar bilan ekranga olib chiqildi;

– rejissyorlarning shaklan rang-barang yondashuvlariga qaramay, mohiyatan milliy komediya xalq vakillarining o‘ziga xos xarakterlarini ochib berishga, insoniy tuyg‘ulari ifodachisiga aylandi. Bunda folklor an‘analardan unumli foydalanish muhim rol o‘ynadi;

– sovet davrida komediya janridagi filmlar son jihatidan kam yaratildi. Biroq har bir kartinada o‘tkir ijtimoiy masala yoki mafkuraviy yondashuv mavjud ekani sezilib turdi. Shunga qaramay, kinoijodkorlar shaklan siyosiy-mafkuraviy buyurtmani aks ettirsalar-da, mohiyatan kuchli badiiy obraz yaratishga katta ahamiyat qaratishdi hamda milliy an‘analar va qadriyatlar ilgari surildi;

– 1960-1970 yillarda kino san‘atidagi “Yangi to‘lqin”ning kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlar komediya janridagi filmlarda ham o‘ziga xos aks etdi, xususan, yangi obrazlarning shakllanishiga, aynan kinokomediyada ma‘lum bir aktyorlar jamoasining yuzaga kelishiga, g‘oya va mavzu ko‘lamining kengayishiga asos bo‘ldi. Shu yillardan boshlab, kinokomediyalarda ko‘tarinki ruhiyat, yoshlarning yangicha dunyoqarashlari yumor vositasida aks etdi. Bu esa o‘z navbatida kinokomediyaning yangi bosqichga olib chiqdi.

– o‘z davrida o‘quvchilar sevib o‘qigan adabiy asarlar hamda teatrlar sahnasida tomoshabiniga ega bo‘lgan dramaturgik asarlar (“Nasriddin Buxoroda, “Nasriddinning sarguzashtlari” (L.Solovyovning “Xo‘ja Nasriddin haqida xikoya” qissasi asosida), “Yangi yer” (A.Qahhorning “Shohi so‘zana” pyesasi asosida), “Sinchalak” (A.Qahhorning shu nomli qissasi asosida), “Shum bola” (G‘.G‘ulomning shu nomli qissasi asosida), “Ajoyib xayolparast” (O.Yoqubovning “Baxt qushi” hikoyasi asosida), “To‘ylar muborak” (O‘.Hoshimov pyesasi asosida), “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (S.Ahmadning shu nomli pyesasi asosida), “Maysaraning ishi” (H.H.Niyoziyning “Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi” pyesasi), “Temir xotin” (Sh.Boshbekovning “Temir xotin” pyesasi)ning ekranlashtirilishi hamda kinoda yangicha talqin topishi, shuningdek keng masshtabga ega bo‘lishi o‘zbek kinokomediyalarining ahamiyatini yanada oshirdi.

